

Fargʻona Davlat Universiteti, Chet tillari fakulteti, Ingliz filologiyasi oʻqituvchisi, PhD, S.X.Azimova taqrizi ostida

UDK: 81.34:373+811.111

Oʻrmonova Maftuna Farhodjon qizi

Fargʻona Davlat Universiteti tayanch doktoranti, Chet tillari fakulteti Ingliz tili amaliy kursi oʻqituvchisi.

E-mail: maftunaxonurmonova@gmail.com

ORCID ID 0009-0002-8842-0618

INGLIZ TILI NEOLOGIZMLARNING TARQALISHIDA ASOSIY TIL VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola neologizmlarning butun dunyo boʻylab tarqalishida ingliz tilining asosiy rolini oʻrganadi. Ingliz tili texnologiya, tijorat va oʻyin-kulgi kabi turli sohalarida dunyo tili boʻlib xizmat qilganligi sababli, u yangi soʻz va iboralarni yaratish va tarqatishning asosiy manbasiga aylandi. Lingvistik soʻz oʻzlashtirish va madaniy tarqalishni har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu maqola ingliz tilidan olingan neologizmlarning turli tillar va madaniyatlarga qanday kirib borishi, muloqotni osonlashtirishi va tobora globallashtirib borayotgan dunyomizning oʻzaro bogʻliqligini aks ettiradi.

Kalit soʻzlar: dunyo tili, neologizmlar, internatsional soʻzlar, ekvivalent, Internet, OAV, tarjima, lingvistik landshaft, til va nutq, soʻz oʻzlashishi.

Аннотация. В данной статье исследуется центральная роль английского языка в распространении неологизмов по всему миру. Поскольку английский язык является мировым языком в таких разнообразных областях, как технологии, торговля и развлечения, он стал основным источником создания и распространения новых слов и фраз. Благодаря всестороннему анализу языкового усвоения слов и культурного распространения эта статья иллюстрирует, как неологизмы английского происхождения проникают в разные языки и культуры, облегчая общение и взаимосвязь нашего все более глобализированного мира.

Ключевые слова: мировой язык, неологизмы, международные слова, эквиваленты, Интернет, СМИ, перевод, лингвистический ландшафт, язык и контекст, источник, усвоение слов.

Abstract. This article explores the central role of the English language in the worldwide spread of neologisms. As English serves as the world's language in fields as diverse as technology, commerce, and entertainment, it has become a primary source for the creation and distribution of new words and phrases. Through a comprehensive analysis of linguistic word acquisition and cultural diffusion, this article illustrates how English-derived neologisms permeate different languages and cultures, facilitating communication and the interconnectedness of our increasingly globalized world.

Key words: world language, neologisms, international words, equivalent. Internet, media, translation, linguistic landscape, language and context, source, word acquisition.

KIRISH

Hozirgi globallashtirish jarayonida ingliz tili dunyo yili sifatida eʼtirof eʼtilib, texnologiya, fan tarmoqlarining barcha sohalarida va ommaviy madaniyatda keng qoʻllanishi tufayli neologizmlarning boshqa tillarga tarqalishida muhim rol oʻynaydi. Ingliz tilida paydo boʻlgan neologizmlar koʻpincha ommaviy axborot vositalari, internet va xalqaro aloqa kanallari orqali tez tarqalib nafaqat boshqa tillarga balki madaniyatlarga ham taʼsir etadi. Bu hodisa, ayniqsa, ingliz tilida soʻzlashuvchilar bilan keng aloqada boʻlgan va ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalarining taʼsiri ostida boʻlgan tillarda yaqqol namoyon boʻladi.

Neologizm yunoncha (neo-yangi; logos-so‘z) “yangi so‘z” degan ma‘noni anglatib, tilda paydo bo‘lgan har bir yangi so‘z, ibora yoki terminni ifodalaydi.

METODOLOGIYA

Jahon va o‘zbek tilshunosligida neologizmlar va ular tahliliga oid tadqiqotlar tarixiy davrlardan boshlab hozirgi kungacha bir qator ilmiy va adabiy manbalarda o‘z ifodasini topib kelmoqda. Bugungi kunda Gabriel Stein, David Crystal, Murray S. Davis va bir qator tilshunos olimlar neologizmlarni turli xil kontekstlarda yaratish, qabul qilish va ommalashtirish dinamikasi va innovatsiyalarini tushunishimizga hissa qo‘shadilar. O‘zbeklardan Sh.Rahmatullayev, Sh. Xolmirzayev, Sh. Ahmedova, D.Xolova, Sh.Rahmonova va G.Rahimova kabi tilshunoslar neologizmlar O‘zbekiston lingvistik landshaftini qanday shakllantirish va aks ettirishini tushuntirish haqida salmoqli ishlari o‘z soha vakillari tomonidan tizimli ravishda foydalaniladi ¹.

XXI asrda neologizmlar leksikasida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘payishida asosiy obyektiv sababi, barcha mamlakatlarda ilmiy jurnallarning 80%i ingliz tilida maqolalar chop etmoqda. Keyingi o‘n yilda xalqaro konferensiyalar va ilmiy simpoziumlardagi ma‘ruza va nutqlarning 76%i, ma‘lumotlar ilmiy bazasida saqlanayotgan axborotlarning 90%i ingliz tilida. Rossiya olimlari uchun ingliz va boshqa tillardan tarjima XX asrning 90-yillari va XXI asrda mutlaqo to‘xtatildi. Ilmiy va badiiy tarjima bilan shug‘ullanadigan Rossiyadagi “Mir” va “Progress” nashriyotlarida keyingi 40, 50 yil ichida birorta ilmiy manba rus tiliga tarjima qilinmadi ².

Ayrim manbalarda qayd etilishicha, 90% Rossiya olimlarining chet tillarni mukammal o‘zlashtirish masalasi xalq etilmoqda. Endi O‘zbekistonda ham faqat chet tilidagi manbalar ingliz tilida berilmoqda. Boshqa tillardagi materiallardan, jumladan, nemis, fransuz, ispan va italyan tillaridan so‘z o‘zlashish koefitsenti nol darajaga tushib qolgan ³.

O‘zbek tili lug‘at boyligining salmoqli qismi tub turkiy va sof o‘zbekcha so‘zlar bo‘lsa, yana ancha qismini, turli davrlarda boshqa tillardan fors-tojik, arab, nemis va boshqa 20dan ortiq tillardan o‘zlashtirilgan. 90-yillardan oldin o‘zbek tili leksikasida rus tili so‘zlarining o‘rni salmoqli edi. **Samovar, karavot, qulupnay, mashina, tuzum** kabi bir qancha so‘zlar o‘zbek tilida rus tili neologizmlari edi. Ammo, XXI asrda dominantlikni ingliz tili egalladi va to‘xtamas oqim sifatida o‘z so‘zlarini tilimizga kiritib kelmoqda ⁴.

Ingliz tilidan kirib kelayotgan neologizmlarning istiqbolli kengayishi O‘zbekistondagi xalqaro aloqalarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlik va xalqaro turizmni rivojlanishiga bog‘liq holat ekanligini ochiq oydin ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, horijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish haqidagi bir qancha Prezident farmoyishlari bu jarayonni yanada tezlashtirdi. “Horijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam

¹ O‘rmonova Maftuna Farhodjon qizi. Neologizmlar tadqiqining ahamiyati. “Madaniyatlararo muloqotni o‘qitishda lingvodidaktikaning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. FarDU – 2024. B – 1650.

² Ergashev I. Yu. Nemischa o‘zlashmalarning sotsiolingvistik va struktur-semantik tadqiqi (Hozirgi o‘zbek tili materiallari asosida) Filologiya fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. Farg‘ona – 2021. B – 148.

³ Бекишева Е.В. Социолингвистические аспекты заимствования в общеупотребительном языке и терминологии// Вестник Саратовский государственный университет. Саратов, 2010 № 3 458-461
Бекишева Е.В. Указанная работа.с.458-461

⁴ Yorqinjon Odilov, Filologiya fanlari doktori, professor. Samovar, karavot, qulupnay: o‘zbek tiliga ruscha qaysi so‘zlar o‘zlashgan? Sputnik matbuot markazi.30.11.2023.

poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi,” – deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zlarining ma‘ruza nutqlarida. Va ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talabning natijasi o‘laroq, horijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganishga va o‘rgatishga yaratilgan imkoniyatlar, sharoitlar va rag‘batlar tahsinga sazovordir.

Bugungi kunga kelib ingliz tilini o‘rganish shunchalik kuchaydiki, bog‘cha yoshidagi bolalardan katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tilini o‘rganishga harakat qilyapti. Bir tarafdin bu ijobiy holat, til o‘rganish orqali o‘zlashtiruvchiga cheksiz imkoniyatlar eshigi ochiladi. Ikkinchi tomondan esa, til va nutqda boshqa til so‘zlariga dam-badam duch kelishimiz odatiy holga aylanib ulguragan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O‘zbek tili morfologik jihatdan agglyutinativ (har bir grammatik ma‘no alohida qo‘shimcha orqali ifodalanadigan) bo‘lgani uchun so‘zning hajmi cho‘zilib ketib, qo‘llashga noqulay bo‘lib qoladi. Til tejamkorlikni yaxshi ko‘radi, shuning uchun nutqda o‘zbekcha uzun bo‘g‘inli so‘zlardan ko‘ra ixcham o‘zlashma so‘zlar iste‘molga tez kirib ketmoqda. Xalqaro atamalarni aynan mos keladigan, ixcham muqobili bo‘lmasa, vaqtincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llagan ma‘qul⁵.

Misol uchun, hozirgi paytda radioeshittirish, OAV, gazeta va jurnallarda ko‘plab inglizcha o‘zlashma so‘zlarga ko‘zimiz tushadi. Mashhur siyosiy arboblal, siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar o‘zlarining nutqlarida ilmiylikni ifodalash uchun ko‘plab o‘z sohalariga doir inglizcha neologizmlardan foydalanishadi. Jumladan, **kompyuter, televideniye, biznes, menejer, marketing, restoran, ayroport** kabi so‘zlar ham o‘zining qo‘llanilish doirasi va sohasiga ega. Mustaqillikdan so‘ng tilmizga **brifing** – briefing, **injenering** – engineering, **imidj** – image, **visual** – visual, **organayzer** – organizer kabi so‘zlarning kirib kelishi tezlashdi.

Ingliz neologizmlarining boshqa tillarda keng qo‘llanishi lingvistik jihatdan so‘z o‘zlashtirish hodisasini va turli sohalarda ingliz tilining global til ekanligini aks ettiradi. Masalan, hozirda o‘zbek tilida **Internet, OK, Hotel, Fast food va ularning turli nomlari Hot dog, Gamburger, Pizza** va boshqalar keng tarqalgan va ma‘nosi barchaga birdek tushunarli. Huddi shunday, boshqa tillarda ham **Wi-fi, CEO, popcorn, email, parking, jurnal** kabi so‘zlar kundalik nutqqa birlashgan. Bunday so‘zlar tilshunoslikda internatsional so‘zlar – bu dunyo tillari doirasida bir xil foydalaniladigan so‘z yoki iboralar bo‘lib, o‘zida umumbashariy g‘oya tushunchalarni aks ettiradi. Bu atamalar qulayligi, nufuzi yoki boshqa tillarda ekvivalenti yo‘qligi sababli ko‘pincha avval mahalliy tillarga so‘ngra xalqaro tillar miqyosida integratsiyalashadi. Ushbu internatsionalizmlarning qabul qilinishi tillarning dinamik moslashuvi va global madaniyatlararo muloqotning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bugun o‘zaro muloqotlarda **press-reliz, press-klub, short-list, platforma, klaster** kabi so‘zlarning ixcham ifodasi mavjud emas. Bu so‘zlarni o‘zbekcha ifodalaganda so‘zlar va bo‘g‘inlar soni oshib ketadi. Shuning uchun ingliz muqobilini neologizm sifatida nutqda foydalanish osonroq ham qulayroq.

Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelayotkan yangi so‘zlarda ikki tip leksemalar mavjud: 1) ingliz tilining o‘z so‘zlari : **jentlmen** – gentleman, **politsiya** – policeman, **biznesmen** – businessman, **total** – total, **hobbi** – hobby 2) ingliz tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar: **edu** – **education** (fransuz), **alchemy** (arab), **mosque** (arab) **imam** (arab). Ingliz tilidagi roman tillaridan o‘zlashgan qatlam 60%dan yuqorini tashkil etishiga qaramay, neologizmlar ingliz tiliga faqatgina G‘arb tillaridan emas, balki, Sharq tillaridan ham o‘zlashishi, yuqoridagi misollar orqali o‘z isbotini topdi⁶.

⁵ G‘ofir Hamroyev, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori O‘zlashma so‘zlarga qanday munosabatda bo‘lishimiz kerak? O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi. Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti. 20.08.2021.

⁶ Ergashev I. Yu. Nemischa o‘zlashmalarning sotsiolingvistik va struktur-semantik tadqiqi (Hozirgi o‘zbek tili materiallari asosida) Filologiya fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. Farg‘ona – 2021. B – 148.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tili neologizmlarni butun dunyo bo‘ylab tarqalishi uchun asosiy vosita bo‘lib turibdi. Uning keng qo‘llanilishi, xususan texnologiya, biznes va ommaviy madaniyat kabi sohalarda ingliz tilidan olingan atamalarning til chegaralari orqali qabul qilinishiga turtki bo‘ldi. Ingliz tili rivojlanishda, o‘zgaruvchan ijtimoiy tendentsiyalar va texnologik yutuqlarga moslashishda davom etar ekan, u global miqyosda aks-sado beradigan yangi so‘zlar va iboralarning dinamik rezervuari bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli asrda ingliz tilining ustunligi uning neologizmlarni tarqatish, lingvistik landshaftni shakllantirish va global miqyosda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning asosiy manbai sifatidagi rolini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘rmonova Maftuna Farhodjon qizi. Neologizmlar tadqiqining ahamiyati. “Madaniyatlararo muloqotni o‘qitishda lingvodidaktikaning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. FarDU – 2024. B – 1650.
2. Ergashev I. Yu. Nemischa o‘zlashmalarning sotsiolingvistik va struktur-semantik tadqiqi (Hozirgi o‘zbek tili materiallari asosida) Filologiya fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. Farg‘ona – 2021. B –148.
3. Бекишева Е.В. Социоллингвистические аспекты заимствования в общеупотребительном языке и терминологии// Вестник Саратовский государственный университет. Саратов, 2010 № 3 458-461 Бекишева Е.В. Указанная работа.с.458-461
4. Yorqinjon Odilov, Filologiya fanlari doktori, professor. Samovar, karavot, qulupnay: o‘zbek tiliga ruscha qaysi so‘zlar o‘zlashgan? Sputnik matbuot markazi.30.11.2023.
5. G‘ofir Hamroyev, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori O‘zlashma so‘zlarga qanday munosabatda bo‘lishimiz kerak? O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi. Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti. 20.08.2021.
6. Ozodov S. “Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlar” Bitiruv Malakaviy Ishi Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek Tili Va Adabiyoti Universiteti Toshkent – 2018. B – 61.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T., 2006. B – 450.
8. Erin McKean. Oxford dictionary of New Words. Eighth edition. Oxford Dictionary Department. England – 1990.
9. A.Hojiyev. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. Toshkent “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati – 2001. B —308.